

SHAFOAT TERMIZIY SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING POETIK AHAMIYATI

Mahfuza Muxtorova

TerDU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18093262>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shafoat Termiziy she'riyatida uchraydigan badiiy san'atlar — tardu aks, ishtiyoq, tanosub va tavze kabi poetik vositalarning mazmunni ochish, obrazlarni kuchaytirish va ohangni boyitishdagi o'rni tahlil qilinadi. Misollar asosida bu san'atlarning shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlashdagi funksiyalari ko'rsatilib, shoirning so'z tanlash mahorati hamda poetik uslubi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shafoat Termiziy, badiiy san'at, tardu aks, ishtiyoq, tanosub, tavze, she'riyat, poetika.

Abstract. This article analyzes the role of poetic devices such as tardu aks, ishtiyoq, tanosub, and tavze in revealing the content, strengthening the images, and enriching the tone, which are found in the poetry of Shafoat Termiziy. Based on examples, the functions of these arts in ensuring the harmony of form and content are shown, and the poet's word choice skills and poetic style are highlighted.

Keywords: Shafoat Termiziy, artistic art, tardu aks, ishtiyoq, tanosub, tavze, poetry, poetics.

Аннотация. В данной статье анализируется роль поэтических приемов, таких как тарду акс, иштикак, таносуб и тавзе, в раскрытии содержания, усилении образов и обогащении тона, которые встречаются в поэзии Шафоата Термизия. На примерах показаны функции этих приемов в обеспечении гармонии формы и содержания, а также выделены навыки выбора слов и поэтический стиль поэта.

Ключевые слова: Шафоат Термизий, художественное искусство, тарду акс, иштикак, таносуб, тавзе, поэзия, поэтика.

Shafoat Termiziy she'riyatida so'zning ritmi, ohangi va mazmunini boyitishda badiiy san'atlar muhim o'rin tutadi; shoirning uslubi aynan turli san'atlar vositasida obrazlarni jonlantirish va ma'no teranligini ta'minlash orqali namoyon bo'ladi.

Tardu aks shoirlar ijodida o'ziga xoslik kashf etuvchi san'atlardan hisoblanadi.

Tardu aks "teskari qilib takrorlash" ma'nosini ifodalab, she'ning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rnini almashtirib qaytarishdan iborat bo'lgan she'riy san'atdir. Quyidagi parchaning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalari keyingi misrada o'rnini almashtirib, qaytarishdan ushbu she'riy san'at qo'llanilgan.

Yulduz chanoqqa, chanoq yulduzga to'kiladi,

Yulduzlarning qoshida O'zbekiston kuladi.

Ishtiyoq deb ataluvchi badiiy san'at nomini bildiruvchi leksema lug'aviy jihatdan yagona etimologik asosga bog'lanuvchi bir so'zdan boshqa bir so'zni hosil qilish degan ma'noni anglatadi. Bu istiloh shundan iboratki, shoir yoki yozuvchi nasr yoki nazmda bir o'zakdan hosil bo'lgan so'zlarni ishlatadi¹.

¹ Хожиахмедов А. Мумтоз бадийят малохати. — Тошкент.: Шарк, 1999. — Б.100.

Ushbu san'atning o'ziga xos bir jihati unda "o'zakdosh so'zlarni shunchaki keltirib she'rga bezak berishgina emas, bunda o'zakdosh so'zlar orasidagi ma'no aloqadorligi asosida mazmunni tiniq va teran, xushohang ifodalash kabi muhim estetik samaralar ko'zlanadi"².

*Ko'ngildagi yor kelar **qorqiz** bo'b eshik ochib,*

***Qor** bilan **qorxat** otib ketar qirlarga qochib.*

Asosan mumtoz adabiyotda ko'plab uchragan mazkur san'at shoir ijodiga ham o'ziga xos jilo baxsh etadi: Qiziqarli tasvirga ega bo'lgan ushbu parchada ma'no va baytdagi shaklni yuzaga kelishida ishtiyoq san'atining o'rni beqiyos.

"Ishtiyoq oddiy so'z o'yini emas, – deb ta'kidlaydi adabiyotshunos Yo. Is'hoqov, – balki u bu so'zning shakliy o'zgarishi mazmun taqozosi bilan yuzaga keladi, yangi shaklning hosil bo'lishi dastlabki ma'no bilan bog'liq bo'lgan yangi tushunchani ham paydo qiladi"³.

Ma'lumki, she'rda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning qo'llanish hodisasi adabiyotshunoslikda **tanosub** san'ati deyiladi.

Tanosub san'ati she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlar va ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratishda yetakchilik qiladi.

*Xush **havo** manzillarni istasa ko'ngli yorning,*

*Siz **bahor** qalbingizdan bir **lolali** qir tuting.*

***Vatan** hur, asr yangi,*

***Millat** mangu, **yurt** mangu.*

Uning "Tishlaringdek injuni zab" g'azal janridagi she'rda tanosib san'ati bir nechta san'atlar bilan birga qo'llanilib, go'zal yor obrazining yaratilishiga xizmat qilgan:

***Zulfingning gajaklari** ham men g'aribni hayron etar,*

***Lab**, ko'z, **tish**, **yuz** imkonida bir o'zi o'ynab, erkalab.*

*Ishqingda **chok** ko'ksimga men **chok tikar jarroh** istaram,*

***Kiprik igna**, **sochingni ip**, **tishlaringni qilgil sadaf**.*

Shafoat Termiziy she'riyatida so'zning ham tovush, ham ma'no jihatlari bilan bog'liq lafziyu-ma'naviy (qorishiq) san'atlardan tavze san'ati keng qo'llaniladi.

***Kelsa** yor tunde **sochiga qor gulin yulduz** qilib,*

***Kutgan dilim kechasiga kulgusin kunduz** qilib.*

***Qirq kecha qorasi ja'm** bo'lsa **qoraroq ja'mdan**,*

***Qirq iqlim bog'langudek qirq ming tola soch** ketida.*

***Jismimga jon** ketirmas **jonon jamol** ko'rsatib,*

***Jondan judo etdi bas**, **jon yuzini berkitib**.*

*– **Kavkabiston kunduz xobda**, **tun uyg'oq**,*

***Ul qora-oq ruh borliqqa bosh bo'yoq**.*

Dastlabki parchada **k** undoshi, keyingi parchada **q**, va uchinchi parchada **j**, oxirgi parchada **b** undosh tovushlari bilan bog'liq yuzaga kelgan tovushlar ohangdoshligi alleteratsiya

² Адабиётшунослик луғати. / Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент.: Академнашр, 2010. – Б. 313.

³ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент.: Зарқалам, 2006. – Б. 377.

mumtoz adabiyotimizda tavze san'atini vujudga keltirgan. Umuman, ushbu qorishiq san'atdan hosil bo'lgan she'rdagi ohangdoshliklar misralarga o'zgacha badiiy jilo, jozibadorlik beradi.

Badiiy san'atlarning uchinchi guruhi bo'lgan qorishiq san'atlar esa she'rning ham shakliga, ham mazmuniga ta'sir qiladi. Shu jihatdan keltirilgan parchadagi tovushlar fonetik usuldagi so'z o'yini she'rning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, Shafoat Termiziy she'rlarida badiiy san'atlar asosida o'ziga xos badiiylik ta'minlagan. Xulosa qilganda, shoirning yuksak iste'dodi, uning so'z qo'llash mahorati va she'riy san'atlardan unumli foydalanishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ.— Тошкент: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. — Тошкент.: Шарқ, 1999. —
3. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.
4. Адабиётшунослик луғати. / Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. — Тошкент.: Академнашр, 2010.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. — Тошкент.: Зарқалам, 2006.